

QONGA BURKANGAN KO'GILOCHAR MASKAN

*Xolmurodov Dilshod Rashidovich**Jizzax DPU dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),**Isoqov Ulug'bek Abdilda o'g'li**Jizzax DPU tarix fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi dunyo tarixida yirik imperiyalardan biri bo'lgan Rim imperiyasidagi eng yirik amfiteatr Kolizey va uning qurilish tarixi haqida so'z yuritiladi. Kolizey va uning faoliyati tarixi, me'morchilik uslublari mavjud adabiyotlar tahlili asosida yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Rim, Platin, Neron, Vespasian, Tit Flaviy, Domisian, Gladiatorlar, jinoyatchilar, Doriy, Ioniya va Korinf usullari, silindrik va krestsimon, ravoq gumbaz

Qadimgi davr insonlari hayoti doimo bir xil mehnat bilan yoki urushlar bilan kechmagan. Qadimgi dunyo xalqlari hayotida teatr muhim o'rin tutgan. Dastlab teatr bundan ikki ming yil muqaddam qadimgi Gretsiyada ya'ni Yunonistonda vujudga kelgan. Teatr so'zining ma'nosi "tomoshaxona", "tomoshalar joyi" degan manolarning anglatgan. Tomoshalar turli xil kattalikdagi amfiteatrlar yani juda ulkan tosh stadionlarda namoish etilgan.

Qadimgi yunonlarning sevimli tomoshalarini aktyorlar turli xil niqob va ko'rinishlarda namoish etishgan bo'lsa, rimliklarning sevimli tomoshalari gladiatorlar jangi bo'lib, uni gladiatorlar (qullar yoki jinoyatchilar) namoish qilishgan. Tomoshalar tosh stadionlarda amfiteatrlarda bo'lib o'tgan. Qadimgi dunyo tarixidagi eng katta amfiteatr esa 50 ming tomoshabinni o'ziga jamlay oladigan Kolizey hisoblangan.

Kolizey, (asl nomi Flaviy amfiteatri) - Flaviy imperatorlari hukmronligi ostida Rimda qurilgan ulkan amfiteatr. Kolizey qurilishi eramizning 70–72-yillari oralig'ida Vespasian davrida boshlangan. U Palatin tepaligidan sharqda, Neron oltin uyining o'rnida joylashgan. Saroy markazidagi sun'iy ko'l ramziy va amaliy maqsadlar tufayli butunlay qurilgan hamda u yerda Kolizey barpo etilgan [www.tarix.sinaps.uz. internet sayti.]. Taxtga chiqish yo'li nisbatan kamtarona bo'lgan Vespasian zolim imperatorning shaxsiy ko'li o'rniga o'n minglab rimlikni sig'dira oladigan amfiteatr qurishga qaror qilgan. Inshoot qurilishi milodiy 80-yilda imperator Tit tomonidan 100 kunlik o'yinlarni o'z ichiga olgan marosim uchun bag'ishlangan.

Imperator Vespasian o'zidan oldingi zolim imperatorlardan nishona qoldirmaslik uchun Palatin tepaligi sharqidagi saroyda joylashgan suniy ko'llarni butunlay buzib, rimliklar uchun dam olish maskanini qurdiradi. Kolizeyning tarix sahnasiga kelishi shu tariqa boshlanadi.

Milodiy 80-yilda imperator Tit Flaviy tomonidan asosiy qismlar qurilishi tugatiladi. Keyinchalik “Flaviy amfiteatr” nomi bilan mashhur bo‘lgan. 82-yilda imperator Domisian bir qancha o‘zgartirishlar qo‘shib, ishni to‘liq yakunlaydi. Avvalgi amfiteatrlardan farqli o‘laroq Kolizey tosh va betondan yasalgan mustaqil inshoot bo‘lib, silindrik va krestsimon gumbazlarning murakkab tizimidan foydalanilgan. Umumiy o‘lchami 189 ga 156 metrni tashkil qiladi [www.wikipedia.org internet sayti].

Kolizeyning uch qavati tashqi tomondan qadimgi dunyoning emg mashxur Doriy, Ioniy va Korinf usullarida qurilgan ustunlarini tutib turuvchi ravoqlar bilan o‘ralgan. O‘sh boruvchi tartibdagi inshoot ustunlari orderlar tizimi nomi bilan Uyg‘onish davri kodifikatsiyasining asosi bo‘lib xizmat qildi. Asosiy konstruktiv karkas va fasad travertindan, ikkilamchi devorlari vulqon tufasidan, ichki va ravoq gumbazlari esa betondan yasalgan.

Inshootning umumiy arxitekturasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak uning balandligi 57 m, tarhi ellips shaklida (524 m). 4 qatlamli o‘rindiqlarga 50 ming tomoshabin joylashgan. Sahna tagida hayvonlar qafasi, omborxona bo‘lgan. Imperator o‘rindig‘i sahna bilan teng ya‘ni balandligi 3,5 m bo‘lgan. 1-qatlamda imperatorning yaqinlari, 2-qatlamda yuqori tabaqali kishilar, 3 va 4 qatlamda oddiy xalq o‘tirgan [Бирд М., Хопкинс К. с. 495]. Yoki bu joylashuvni quyidagicha: arenani o‘rab turgan keng marmar teras (podium) devor bilan himoyalangan bo‘lib, uning ichida imperator va boshqa oliy martabali shaxslar obro‘li birinchi qator o‘rindiqlar yoki qutilar deb nomlangan joylardan shoularni tomosha qilgan edi. Bu tashqarida o‘rindiqlar zonalarga bo‘lingan: badavlat fuqarolar (senators), otliqlar (equestrians) o‘rta tabaqa fuqarolari (intermediate categories) uchun marmar o‘rindiqlar. Qullar va chet elliklar uchun esa yog‘ochlik o‘rindiqlar. Ayollar va past tabaqa vakillari uchun esa yuqori qavatdagi tekis tomli kolonnada yog‘och o‘rindiqli va tik turib tomosha qilish joylari mavjud bo‘lgan. O‘rindiklar toshdan ishlangan, galereyalarining konstruksiyalari beton va g‘isht bilan mustahkamlangan va bunga kop mashaqat ketgan. Kolizeyning ulug‘vor old tomoni 4 qavatli, har biri 80 ta ravoqlar qatori bilan jozibador ishlangan, pastki qismidan tomoshabinlar kirish va chiqishda foydalanganlar. Kolizey markazidagi sahnada bayram marosimlari, qurbonlik, gladiatorlar jangi, teatr tomoshalari o‘tkazilgan.

Kolizeyning yana bir o‘ziga xosliklaridab biri shunda ediki, uning tom platformasining tepasida tomoshabinlarni yomg‘irdan himoya qiladigan yoki issiq kunlarda soyani ta‘minlaydigan katta ayvonni (velarium) boshqarish uchun dengizchilar ishlagan. O‘rindiqlarga keng zinapoyalar orqali kirilgan va har bir o‘rindiq raqamlangan [Колизей // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. с. 684-685.].

Kolizeyning umumiy sig‘imi taxminan 45 000 o‘rindiq va 5 000 nafar tik

turgan tomoshabinni sig‘dira olgan. Kolizeyning eng qadimiy tasvirlaridan biri Titus tangalarida uchraydi va unda uchta qavatni, yuqori tashqi arklardagi haykallarni va uning yonida joylashgan katta ustunli favvora — Meta Sudanni tasvirlangan.

Kolizey garchi turli davrlardagi zilzila va tosh o‘g‘rilarining (asosan marmar toshlarni) o‘marishlari tufayli vayron bo‘lgan bo‘lsa-da, hozirgi kunga qadar Rim imperiyasining mashhur ramzlaridan biri hisoblanadi. U Rimning salobatini qudratini o‘zida namoyon etgan holda eng mashhur sayyohlik joylaridan biri bo‘lib, Rim katolik cherkovi bilan ham bog‘langan. Har bir muborak juma kuni Rim papasi mash‘ali bilan “Xoch yo‘li” marosimini Kolizey atrofida boshlaydi. Shuningdek, Kolizey tasviri besh sentlik yevro tangananing italyancha variantiga tushirilgan [O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2000. 206-208-b.].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Kolizey Flaviolar Amfiteatri nomi bilan ham tanilgan bo‘lib, Italiya poytaxti Rim shahri markazida joylashgan butun dunyoga mashhur diqqatga sazovor maskan hisoblanadi. Milodiy 72-80-yillar oralig‘ida travertin (g‘ovak ohaktosh), tuf (g‘ovak tog‘ jinsi) va g‘isht betondan qurilgan bu inshoot hozirga qadar qurilgan eng ulkan amfiteatr hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бирд М., Хопкинс К. Колизей - The colosseum. Москва. 2007.
2. Колизей // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефропа. Москва. 1895.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000.
4. www.tarix.sinaps.uz. internet sayti.
5. www.wikipedia.org internet sayti